

## O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA KOMPANIYALARINING INVESTITSION FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

**Haqberdiyev Bekzod Uktamovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti PhD.,  
mustaqil tadqiqotchisi.

ORCID: 0009-0003-4580-4520

E-mail: [bekzoduktamovich007@gmail.com](mailto:bekzoduktamovich007@gmail.com)

### Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston sug‘urta bozorining rivojlanish tendensiyalari, sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyatidagi mavjud muammolar hamda ularni takomillashtirish yo‘llari tahlil qilinadi. Sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash va raqobatbardoshligini oshirish uchun investitsion faoliyatni samarali tashkil etishlari zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada xorijiy tajriba asosida investitsion portfelni diversifikatsiya qilish, xavf-xatarlarni boshqarish va tartibga soluvchi-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Ilmiy-uslubiy yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar sug‘urta sohasida investitsiyaviy faollikni oshirishga xizmat qilishi mumkin.

**Kalit so‘zlar:** sug‘urta kompaniyalari, investitsiya portfeli, risklarni boshqarish, sug‘urta bozori, investitsion muhit, xalqaro tajriba, huquqiy-me‘yoriy baza, kapital oqimi, diversifikatsiya, ESG investitsiyalar, O‘zbekiston sug‘urta sektori.

### Аннотация

В статье анализируются тенденции развития страхового рынка Узбекистана, существующие проблемы в инвестиционной деятельности страховых компаний и пути их совершенствования. Обоснована необходимость эффективной организации инвестиционной деятельности для обеспечения финансовой устойчивости и повышения конкурентоспособности страховых компаний. Также даны рекомендации по диверсификации инвестиционного портфеля, управлению рисками и совершенствованию регулирующие-правовых механизмов на основе зарубежного опыта. Предложенные рекомендации, разработанные на основе научно-методического подхода, могут способствовать повышению инвестиционной активности в страховом секторе.

**Ключевые слова:** страховой рынок, инвестиционная деятельность, финансовая устойчивость, диверсификация, зарубежный опыт, управление рисками

### Abstract

This article analyzes the development trends of the insurance market of Uzbekistan, existing problems in the investment activities of insurance companies and ways to improve them. The need for insurance companies to effectively organize investment activities in order to ensure financial stability and increase their competitiveness is substantiated. The article also provides recommendations on diversifying the investment portfolio, risk management and improving regulatory and legal mechanisms based on foreign experience. Proposals and recommendations

developed on the basis of scientific and methodological approaches can serve to increase investment activity in the insurance sector.

**Keywords:** insurance companies, investment portfolio, risk management, insurance market, investment environment, international experience, legal and regulatory framework, capital flow, diversification, ESG investments, Uzbekistan's insurance sector.

## KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sugʻurta bozori mamlakat moliyaviy tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sugʻurta kompaniyalari nafaqat moliyaviy himoya funksiyasini bajaradi, balki investitsiyaviy faoliyat orqali iqtisodiyotning turli sohalariga kapital yoʻnaltiruvchi muhim moliyaviy institut sifatida ham maydonga chiqmoqda. Shu jihatdan, Oʻzbekistonda sugʻurta sohasini isloh qilish, uning investitsion salohiyatini oshirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-martdagi PQ-108-son Qarori — “Sugʻurta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari toʻgʻrisida[1]”gi farmonida sugʻurta tashkilotlarining investitsion faoliyatini kengaytirish boʻyicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi “Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida[2]”gi Qonuni (2022-yil 25-fevraldan kuchga kirgan)da sugʻurta tashkilotlarining investitsiyaviy operatsiyalari, aktivlarni joylashtirish prinsiplari va ularning moliyaviy barqarorligini taʼminlashga oid normalar belgilangan.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-iyundagi 350-son qarori bilan tasdiqlangan “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati toʻgʻrisida[3]” ham sohaga oid muhim hujjat hisoblanadi. Ushbu meʼyoriy-huquqiy bazaning mavjudligiga qaramay, sugʻurta kompaniyalarining investitsion faoliyatida hali toʻliq samaradorlikka erishilmagan, investitsiya yoʻnalishlari cheklangan, moliyaviy vositalar turlari kam va xavf menejmenti yetarli darajada rivojlanmagan.

Shu sababli, Oʻzbekistonda sugʻurta kompaniyalarining investitsion faoliyati holati, uni cheklab turgan omillar va mavjud salohiyatdan toʻliq foydalanish imkoniyatlari statistik tahlillar asosida oʻrganiladi. Shuningdek, xorijiy tajriba asosida sugʻurta kompaniyalarining investitsiyaviy faoliyatini takomillashtirish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar bugunga qadar dolzarb masala ekanligi oʻz tasdigʻini topmoqda.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy olimlardan J.F. Outreville oʻzining “Theory and Practice of Insurance” asarida sugʻurta kompaniyalarining investitsion faoliyatini samarali tashkil etish uchun ularning aktivlarini uzoq muddatli, barqaror va daromadli yoʻnalishlarga yoʻnaltirishi zarurligini taʼkidlaydi. Unga koʻra, aktivlar boshqaruvida asosiy urgʻu risklarni diversifikatsiyalash va moliyaviy barqarorlikni saqlashga qaratilishi kerak [4].

Shuningdek, J.D. Cummins va M.A. Weiss tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda AQSh sugʻurta sektori misolida kompaniyalarning tizimli xavflarga qarshi turish qobiliyati va ularning investitsiyaviy strategiyalari tahlil qilingan. Ular sugʻurta

kompaniyalari kapital oqimini samarali boshqarishi uchun qat'iy nazorat tizimi va shaffof hisobdorlik mexanizmlari muhimligini ta'kidlaydi [5].

Yana bir muhim manba sifatida, Swiss Re Institute tomonidan e'lon qilinadigan global hisobotlarda sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatidagi tendensiyalar, texnologik innovatsiyalar va ESG (atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv) tamoyillariga asoslangan investitsiyalar roli keng yoritiladi. Ularning fikricha, barqaror investitsiyaviy muhit va yaxshi boshqaruv tizimi mavjud bo'lgan sug'urta kompaniyalari raqobatbardosh ustunlikka ega bo'ladi [6].

Sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatini takomillashtirish borasida olib borilgan tadqiqotlar ushbu sohaning iqtisodiy rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim moliyaviy institut sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi. Masalan, mahalliy iqtisodchi olimlardan N.M. Babaeva o'z ishida O'zbekistondagi sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyat samaradorligini oshirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalarini ko'rib chiqadi. U qayd etadi, kompaniyalar hozirda asosan bank omonatlari va qimmatli qog'ozlarga sarmoya qilishga tayanmoqda, ammo portfel diversifikatsiyasida anketa yetishmaydi va real aktivlar (ko'chmas mulk, kreditlar) yo'nalishida sarmoyalar o'sib bormoqda. Babaeva shuningdek, regulyatorlik islohotlari, davlat investitsiya strategiyalari va xalqaro reyting standartlarini joriy etish zarurligini ta'kidlaydi [7].

K.B. Zaripov sug'urta bozorining O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rni, sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatining hozirgi holati, bozor strukturasi va zaifliklari va rivojlanish istiqbollari haqida mulohazalar beradi. U ta'kidlaydiki, sug'urta kompaniyalarining investitsiyalari ko'pincha risk past bo'lgan aktivlarga yo'naltiriladi, yuqori riskli lekin yuqori daromad keltiruvchi aktivlardan ehtiyotkorona foydalanish kerak. Zaripov "xorijiy va mahalliy olimlar fikrlari"ni tahlil qilish orqali bozor infratuzilmasini kuchaytirish va investitsiya qobiliyatini oshirish bo'yicha takliflar keltiradi [8].

## **METODOLOGIYA**

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish maqsad qilingan. Shu asosda quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanildi:

Ekspert baholash va nazariy tahlil. Mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlari, ilmiy maqolalari (J.F. Outreville, Cummins & Weiss, N.M. Babaeva va K.B. Zaripov) asosida investitsion samaradorlik va xavf boshqaruvi tizimi bo'yicha nazariy asoslar ko'rib chiqildi.

Tahliliy-uslubiy yondashuv. Sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatini tashkil etish, aktivlar portfeli tuzilmasi va investitsiya yo'nalishlari bo'yicha mavjud statistik ma'lumotlar asosida tahliliy xulosalar berildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Kapital bozorini rivojlantirish agentligining ochiq ma'lumotlari asosida 2020–2024-yillar oralig'idagi ko'rsatkichlar o'rganildi.

Taqqoslash metodi. O‘zbekiston sug‘urta bozoridagi investitsiyaviy faoliyat xalqaro amaliyot bilan solishtirildi. Xususan, Swiss Re, OECD, va boshqa ilg‘or davlatlar (AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya) sug‘urta sektorlarining investitsion modeli bilan taqqoslab, farqlar va o‘xshashliklar aniqlab chiqildi.

Sistemali yondashuv. Sug‘urta kompaniyalari faoliyatini iqtisodiy tizimning boshqa institutlari bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqish orqali investitsion faoliyatga ta‘sir etuvchi omillar (huquqiy baza, fiskal siyosat, moliyaviy infratuzilma) tizimli tarzda o‘rganildi.

Grafik va statistik metodlar. Sug‘urta kompaniyalarining investitsion aktivlari, ularning taqsimoti va daromadliliği bo‘yicha grafik va diagrammalar tuzilib, ularning asosida vizual tahlil amalga oshirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston sug‘urta bozorida so‘nggi yillarda investitsion faoliyat hajmi ortib borayotgan bo‘lishiga qaramasdan, sug‘urta kompaniyalarining ushbu yo‘nalishdagi imkoniyatlari to‘liq safarbar etilmayapti. Iqtisodiyot va moliya vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yil holatiga ko‘ra, sug‘urta kompaniyalari tomonidan yo‘naltirilgan jami investitsiyalar hajmi 6,5 trillion so‘mni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 15 foizga o‘sganini bildiradi. Investitsiya portfeli tarkibini tahlil qilganda quyidagi asosiy yo‘nalishlar ajralib turadi: 70,1 foiz — tijorat banklaridagi depozitlar; 19,9 foiz — davlat va korporativ qimmatli qog‘ozlar; 6,9 foiz — ko‘chmas mulk obyektlariga investitsiyalar; 3,1 foiz — boshqa investitsiya vositalari (masalan, investitsion fondlar, lizing aktivlari va boshqalar). Ushbu ma‘lumotlarni batafsil quyidagi jadval orqali yillar kesimida kuzatishimiz mumkin (1-jadval).

### 1-jadval

#### Sug‘urta kompaniyalarining investitsion portfeli taqsimoti (foizda)<sup>1</sup>

Investitsiya yo‘nalishi	2020	2021	2022	2023	2024
Depozitlar (banklardagi)	65.0	66.5	68.0	69.0	70.1
Qimmatli qog‘ozlar	20.0	19.8	19.5	19.7	19.9
Ko‘chmas mulk	8.0	7.5	7.0	6.8	6.9
Boshqa investitsiyalar	7.0	6.2	5.5	4.5	3.1

Mazkur jadval O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan sug‘urta kompaniyalarining investitsion portfeli tarkibini so‘nggi 5 yil kesimida aks ettiradi. Depozitlar asosiy investitsiya yo‘nalishi sifatida saqlanib qolmoqda. 2024-yil holatiga ko‘ra, kompaniyalar o‘z aktivlarining 70,1 foiz qismini tijorat banklaridagi omonatlarga joylashtirgan. Bu esa, bir tomondan, likvidlik va xavfsizlikni ta‘minlasa-da, boshqa tomondan, portfelning foydalilik darajasini cheklab qo‘yadi. Qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalar deyarli o‘zgarmagan — bu yo‘nalish atrofida 19–20 foiz oralig‘ida harakatlanmoqda. Bu holat O‘zbekistonda obligatsiyalar va korporativ qimmatli

<sup>1</sup>Muallif ishlanmasi

qogʻozlar bozorining hali toʻliq shakllanmaganidan dalolat beradi. Koʻchmas mulk investitsiyalarining ulushi yildan-yilga pasayib bormoqda. Bu esa yoki aktivlarning likvidligi pastligi, yoki rieltorlik bozorida ishonchsizlik mavjudligidan dalolat boʻlishi mumkin. Boshqa investitsiya vositalari (masalan, investitsion fondlar, ijara asosidagi aktivlar, xalqaro aktivlar) juda kam ulushga ega (2024 yilda 3,1 foiz). Bu esa kompaniyalar diversifikatsiyalash imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanmayotganini koʻrsatadi.

Portfelning tarkibiy tahlili asosida aytish mumkinki, kompaniyalar xavfsiz investitsiyalarni tanlayotgan boʻlsa-da, strategik daromadlilik va risklarni boshqarish nuqtai nazaridan bu optimal yondashuv emas. Portfelni diversifikatsiyalash va yangi moliyaviy instrumentlar bilan ishlash orqali bu holatni sezilarli darajada yaxshilash mumkin.

Bu koʻrsatkichlar shuni koʻrsatadiki, sugʻurta kompaniyalari oʻz investitsion portfellarini asosan kam riskli, lekin past daromadli yoʻnalishlarga yoʻnaltirmoqda. Outreville tomonidan qayd etilganidek [9], sugʻurta kompaniyalari barqaror daromad olish bilan bir qatorda aktivlarning xavfsizligi va likvidligini ham eʼtiborda tutishi zarur. Biroq portfelning yuqori darajada konservativ boʻlishi, kompaniyalar uchun foydalilik darajasining pastligiga olib kelmoqda.

Bundan tashqari, sugʻurta kompaniyalari tomonidan risklarni boshqarish tizimi yetarli darajada rivojlanmagan. Xalqaro reyting agentliklarining (Swiss Re, 2024) hisobotlarida qayd etilishicha, Oʻzbekiston sugʻurta kompaniyalarining investitsion strategiyalari yetarli darajada diversifikatsiyalanmagan, moliyaviy instrumentlar bozori esa cheklanganligicha qolmoqda [10].


Sugʻurta kompaniyalarining investitsion faoliyati iqtisodiyotdagi moliyaviy vositachilik tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Sugʻurta tashkilotlari tomonidan toʻplangan premiyalar va zaxira mablagʻlar iqtisodiy muomalaga investitsiyalar orqali qayta jalb etiladi. Bu holat investitsion kapital oqimini shakllantirishda sugʻurta sektorining oʻrni tobora ortayotganini anglatadi.

Nazariy jihatdan, sugʻurta kompaniyalari investitsiyalarining hajmi va samaradorligi bir necha omillar — yaʼni investitsion muhitning barqarorligi, moliyaviy bozor infratuzilmasi, tartibga soluvchi qonunchilik, aktivlarni boshqarish sifati va kompaniyalarning riskga nisbatan yondashuvlariga bevosita bogʻliq. Shuningdek, Markovitzning portfel nazariyasi asosida qaralganda, kompaniyalar optimal rentabellik va xavfni muvozanatlashtirish orqali investitsion portfelini shakllantirishi lozim.

Oʻzbekiston sugʻurta sektori kontekstida yuqoridagi nazariy asoslar cheklangan darajada amalda qoʻllanmoqda. Kompaniyalar asosan xavfsiz va yuqori likvidli vositalarga — tijorat banklaridagi depozitlarga tayanmoqda, bu esa portfelning

rentabellik salohiyatini cheklaydi. Shunga qaramay, so‘nggi yillarda investitsion faoliyat hajmi ijobiy dinamika bilan o‘shib bormoqda.

Quyidagi rasmda 2019–2024-yillar davomida, o‘rganilgan tendensiyalarga ko‘ra, sug‘urta kompaniyalari tomonidan amalga oshirilgan jami investitsiyalar hajmidagi o‘zgarishlar aks ettirilgan (1-rasm).



**1- rasm. Sug‘urta kompaniyalarining investitsion faoliyati hajmi, trln. so‘mda (2019–2024 yillar) [11]**

Yuqoridagi rasm tahlili natijasida ushbu asosiy tendensiyalarni kuzatish mumkin, 2019-yildan boshlab investitsion hajm yildan-yilga barqaror o‘shib borgan, 2019-yilda 4,1 trillion so‘m bo‘lgan ko‘rsatkich 2024-yilda 6,5 trillion so‘mga yetgan. Bu esa 56 foizdan ortiq real o‘shishni bildiradi. Bu o‘shish asosan aktivlar hajmining oshishi, sug‘urta mukofotlarining ko‘payishi va kompaniyalarning moliyaviy salohiyati yaxshilanishi hisobiga yuzaga kelgan. Shunga qaramasdan, o‘shish sur‘ati sekin, chunki investitsiyalarning yo‘nalishlari cheklangan, kapital bozorida samarali instrumentlar yetishmaydi. Investitsiya hajmining o‘shib borishi ijobiy tendensiya bo‘lib, kompaniyalarning moliyaviy rolini kuchaytirayotganini ko‘rsatadi. Biroq, bu o‘shishni sifat jihatidan ham oshirish zarur. Faqat hajm emas, balki portfelning diversifikatsiyasi va rentabelligi ham e‘tiborga olinishi kerak.

O‘zbekiston sug‘urta bozori so‘nggi yillarda bosqichma-bosqich liberallashib bormoqda. Hukumat tomonidan qabul qilinayotgan strategik hujjatlar — jumladan, “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida” doirasida qabul qilingan iqtisodiy islohotlar, sug‘urta sektorini moliyaviy vositachi sifatida faollashtirishga qaratilgan. Amaldagi normativ-huquqiy baza sug‘urta sohasida bozor mexanizmlarini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, mazkur tartibotlar investitsiya faoliyatini yanada samarali yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ba‘zi jihatlarda takomillashtirishni talab etadi. Xususan, aktivlarni joylashtirish bo‘yicha mavjud cheklovlar, soliq tartibotlari va nazorat mexanizmlari

sugʻurta tashkilotlarining investitsiya siyosatini amalga oshirishida ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab qiladi. Ushbu omillar esa kompaniyalar tomonidan investitsiya faoliyatini yanada moslashuvchan va diversifikatsiyalashgan shaklda yuritishga muayyan taʼsir koʻrsatmoqda. Bundan tashqari, xalqaro standartlarga mos moliyaviy hisobot berish, ESG tamoyillarini joriy etish, xavflarni baholash mexanizmlarining sustligi — sektorning zamonaviy investitsion yoʻnalishlarga chiqish imkoniyatlarini cheklab qoʻymoqda.

Yana bir muhim omil — bu sugʻurta kompaniyalarining oʻz ichki boshqaruv tizimidagi cheklovlaridir. Koʻplab kompaniyalar professional aktivlar menejmentiga ega emas, portfel boshqaruvi koʻpincha qisqa muddatli maqsadlar bilan cheklangan. Holbuki, zamonaviy investitsion strategiyalar uzoq muddatli barqarorlik, riskni diversifikatsiyalash va ijtimoiy masʼuliyat tamoyillariga asoslanadi.

Shunday qilib, Oʻzbekistonda sugʻurta bozorini liberallashtirish va moliyaviy sektorni isloh qilish boʻyicha sezilarli qadamlar qoʻyilgan boʻlsa-da, ularning real amaliy samarasi toʻliq namoyon boʻlmagan (2-jadval).

## 2-jadval

### Sugʻurta kompaniyalarining investitsion faoliyatiga taʼsir qiluvchi asosiy muammolar tasnifi [11]

Muammo	Tavsiya etilgan yechimlar
Investitsion portfelning diversifikatsiyasi yetarli emas	Moliyaviy vositalar turini kengaytirish, yangi aktivlarga investitsiya qilish
Moliyaviy bozor infratuzilmasi rivojlanmagan	Bozor infratuzilmasini yaxshilash, investitsiyalar uchun qulay sharoit yaratish
ESG tamoyillariga mos investitsiyalar yetishmasligi	Barqaror investitsiya mexanizmlarini joriy etish va ijtimoiy masʼuliyatni oshirish

Ushbu jadval sugʻurta kompaniyalari investitsion faoliyatiga toʻsiq boʻlayotgan muammolarni aniqlab, ularga nisbatan real va amaliy yechimlar taklif qiladi:

diversifikatsiyaning pastligi sugʻurta portfellarini xavfga nisbatan zaif holatda qoldiradi. Bu esa daromadlilikni kamaytiradi va tizimli risklarni oshiradi. Yechim sifatida, kompaniyalar yangi moliyaviy vositalarga (masalan, korporativ obligatsiyalar, REIT, xalqaro fondlar) yoʻnaltirilishi lozim;

moliyaviy bozor infratuzilmasi zaifligi ham asosiy muammo boʻlib, koʻplab investitsion yoʻnalishlarning mavjud emasligi yoki samarali ishlamasligi kompaniyalarni tor doirada faoliyat yuritishga majbur qiladi;

ESG investitsiyalarining sustligi esa xalqaro tendensiyalardan orqada qolish holatini koʻrsatadi. Bugungi kunda atrof-muhitga ijobiy taʼsir koʻrsatadigan, ijtimoiy masʼuliyatli va korporativ boshqaruvga asoslangan investitsiyalar tobora dolzarb boʻlib bormoqda. Sugʻurta kompaniyalari bu sohada faolroq boʻlishi kerak. Bu jadval

orqali aniqlangan muammolarni bartaraf etish sugʻurta kompaniyalarining investitsion salohiyatini nafaqat kengaytiradi, balki ularning mamlakat iqtisodiyotiga koʻrsatayotgan taʼsirini ham kuchaytiradi.

Yuqorida olib borilgan tahlillar sugʻurta kompaniyalarining investitsion faoliyati mamlakat iqtisodiyotining moliyaviy barqarorligini taʼminlashda muhim oʻrin tutishini koʻrsatdi. Oʻzbekiston sharoitida bu imkoniyatlardan toʻliq foydalanish yoʻlida muayyan yutuqlar bilan birga, tizimli cheklovlar ham mavjud. Grafik va jadvallar orqali aniqlangan tendensiyalar, mavjud muammolar va ular boʻyicha taklif etilgan yechimlar, sohani chuqurroq isloh qilish zaruriyatini taʼkidlaydi. Shu boisdan, keyingi bosqichda aniq va amaliy takliflarga asoslangan yondashuvni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sugʻurta sohasidagi investitsiyaviy faoliyat koʻplab omillarga, jumladan normativ-huquqiy tartibot, bozordagi raqobat darajasi, makroiqtisodiy sharoitlar va risklarni boshqarish tizimlariga bevosita bogʻliq. Ushbu tadqiqotda Oʻzbekiston sugʻurta bozorining investitsiyaviy faoliyati taqqoslash metodi asosida xalqaro amaliyot bilan solishtirilib, farqlar va oʻxshashliklar tahlil qilindi. Tahlil doirasida Swiss Re instituti, OECD hisobotlari va AQSh, Yaponiya hamda Janubiy Koreya sugʻurta sektorlariga oid ochiq statistik maʼlumotlar oʻrganildi. Sugʻurta kompaniyalari investitsiya siyosatini yuritishda odatda uchta asosiy tamoyil – xavfsizlik, likvidlik va daromadlilik (rentabellik) oʻrtasida muvozanatni saqlashi zarur. Ushbu model iqtisodiy nazariyada “sarmoyaviy uchburchak” (investment triangle) deb yuritiladi. Ilgʻor davlatlar (AQSh, Yaponiya) ushbu uchlikni riskga asoslangan boshqaruv tizimlari orqali muvozanatlashtirib, yuqoriroq rentabellikka erishmoqda. Oʻzbekistonda esa xavfsizlik va likvidlik yuqori ustuvorlikka ega boʻlgani sababli portfellar nisbatan konservativ shakllangan (3-jadval).

### 3-jadval

#### Sugʻurta kompaniyalarining investitsiyaviy faoliyati: Oʻzbekiston va ilgʻor davlatlar taqqoslanishi [12]

Koʻrsatkichlar	Oʻzbekiston	AQSh	Yaponiya	Janubiy Koreya
<b>Investitsiya portfeli tarkibi</b>	60–70% davlat obligatsiyalari, 20% depozitlar	Diversifikatsiyalashga n: aksiyalar, obligatsiyalar, koʻchmas mulk	60% davlat obligatsiyalari, 30% korporativ obligatsiyalar	Oʻrtacha darajadagi diversifikatsiya
<b>Riski boshqarish modeli</b>	Prudensial cheklovlar asosida	Risk-Based Capital (RBC) tizimi	Solvency II elementi mavjud	RBC + aktuar nazorat
<b>Tartibga solish yondashuvi</b>	Konservativ, qatʼiy normativlar	Moslashuvchan va xavfga asoslangan	Markazlashgan va qatʼiy	Raqamlashtirilgan va moslashuvchan

Ko'rsatkichlar	O'zbekiston	AQSh	Yaponiya	Janubiy Koreya
<b>Likvidlik siyosati</b>	Yuqori likvidlik ustuvor	Likvidlik va rentabellik balansi	Uzoq muddatli aktivlar bilan qoplangan	O'rtacha risk-balans yondashuvi
<b>O'rtacha investitsiya rentabelligi</b>	3–5% (O'zsug'urta assotsiatsiyasi, 2023)	6–8% (NAIC, 2022)	4–6% (OECD, 2021)	5–7% (KIRI, 2023)

Taqqoslash natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sug'urta bozori ehtiyotkor yondashuvga asoslangan bo'lib, aktivlar asosan past riskli moliyaviy vositalarga joylashtiriladi. Bu esa barqarorlikni ta'minlasa-da, rentabellikni cheklaydi. Ilg'or tajribalar esa risklarni aniq baholab, aktiv portfellarni kengroq diversifikatsiya qilish, uzoq muddatli aktivlarga sarmoya kiritish va zamonaviy risk boshqaruv tizimlarini qo'llash orqali yuqoriroq investitsiyaviy natijalarga erishayotganini ko'rsatmoqda. Shu bois, O'zbekistonda mavjud tartibotlarni moslashuvchanlashtirish, risk asosida boshqaruv tizimlarini joriy qilish, va aktivlarni kengroq segmentlarga investitsiyalashga sharoit yaratish orqali sug'urta sektorining investitsiyaviy salohiyatini yanada oshirish mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston sug'urta sektori iqtisodiyotda investitsion vositachi sifatida faol ishtirok etayotgan bo'lsa-da, bu yo'nalishdagi salohiyat to'liq ishga solinmagan. Investitsiya portfellari asosan qisqa muddatli va past daromadli vositalarga yo'naltirilgan. Bunga bozor infratuzilmasining rivojlanmaganligi, kompaniyalarning investitsion strategiya yuritishdagi tajriba yetishmovchiligi sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, davlat tomonidan qabul qilinayotgan strategik hujjatlar va islohotlar bu borada ijobiy sur'atda rivojlanish uchun zamin yaratmoqda.

1. Investitsion portfelni diversifikatsiyalash imkoniyatlarini kengaytirish. Sug'urta kompaniyalari asosan tijorat banklaridagi depozitlarga yoki davlat obligatsiyalariga sarmoya kiritmoqda, bu esa portfel rentabelligini pasaytiradi. Sug'urta kompaniyalarining investitsion portfellarini diversifikatsiyalash imkoniyatlarini kengaytirish uchun sug'urta tashkilotlari uchun yangi moliyaviy instrumentlarga, jumladan aksiyalar, korporativ obligatsiyalar va ko'chmas mulkka sarmoya kiritish imkoniyatlarini yaratish lozim. Investitsiya faoliyatini samarali boshqarish maqsadida kompaniyalarda professional investitsiya menejerlarini jalb qilish va zamonaviy risk boshqaruv tizimlarini joriy etish muhim hisoblanadi.

2. Xalqaro standartlarga mos investitsion boshqaruv tizimini joriy etish. Kompaniyalar investitsion faoliyatni barqaror va shaffof yuritishi uchun IFRS (International Financial Reporting Standards) va ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillariga mos strategiyalarni joriy etishi lozim. Buning uchun

Markaziy bank yoki boshqa regulyator organ tomonidan metodik qoʻllanmalar, tavsiyalar ishlab chiqilishi, xodimlar uchun treninglar tashkil etilishi zarur.

3. Raqamlashtirish va investitsion shaffoflikni oshirish. Sugʻurta kompaniyalarining investitsion faoliyati boʻyicha ochiq, onlayn hisobot tizimini yaratish — investorlar ishonchini mustahkamlash bilan birga, kompaniyalar oʻrtasida sogʻlom raqobatni kuchaytiradi. Elektron axborot platformalari orqali sarmoya oqimlari, investitsion portfellarning tarkibi va samaradorligi haqida muntazam tahliliy maʼlumotlar eʼlon qilinishi kerak.

4. Investitsiyalarning xavfsizligini taʼminlash uchun davlat ishtirokidagi sugʻurta fondlari yoki kafolat markazlari faoliyatini kengaytirish, shuningdek, ilgʻor xorijiy mamlakatlardagi amaliyotlarni hisobga olgan holda, investitsiyalarning kafolatlanishini mustahkamlash foydali boʻladi. Bu kabi yondashuvlar investitsiya faoliyatining barqarorligini oshirishga yordam beradi.

5. Sugʻurta sektorida institutsional islohotlarni chuqurlashtirish. Investitsion faoliyat samaradorligi nafaqat moliyaviy vositalar mavjudligiga, balki institutlar sifati va ishonchligiga ham bogʻliq. Shu boisdan, ularning professional salohiyati hamda monitoring tizimi zamonaviylashtirilishi kerak. Bundan tashqari, fuqarolik jamiyati ishtiroki, mustaqil reyting agentliklari va tahliliy markazlarning faoliyati ragʻbatlantirilishi lozim.

Shu tarzda, sugʻurta kompaniyalarining investitsion faoliyatini takomillashtirish boʻyicha ilgari surilgan takliflar nafaqat sektor ichidagi tizimli muammolarni bartaraf etishga, balki butun moliyaviy bozorning barqarorligi va investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Yangi yondashuvlar, diversifikatsiya, institutsional islohotlar, raqamlashtirish va xalqaro standartlarga moslashuv hamda sugʻurta kompaniyalarini iqtisodiyotda faol va samarali moliyaviy institutlar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar orqali shakllantirilgan mazkur ilmiy takliflar amaliy jihatdan amalga oshirilsa, sugʻurta sektori investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantirishda muhim tayanchga aylanishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni 2-avgust 2022-yil — “Sugʻurta xizmatlari bozorini isloh qilish va moliyaviy barqarorlikni taʼminlash toʻgʻrisida”. PF-154-son <https://lex.uz/uz/docs/-6824178>

2. Oʻzbekiston Respublikasi “Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonuni — 23-noyabr 2021-yil. OʻRQ-730-son <https://lex.uz/docs/-5739117>

3. Oʻzbekiston Respublikasi “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonuni — 25-dekabr 2019-yil. OʻRQ-598-son <https://lex.uz/docs/-4664142>

4. J. Francois Outreville. Springer Science & Business Media, 1998 — P: 340.  
Short link: <https://surl.li/djvrur>
5. Cummins J. D., Weiss M. A. Analyzing firm performance in the insurance industry using frontier efficiency and productivity methods //Handbook of insurance. – 2013. – C. 795-861. Short link: <https://surl.li/wduxhg>
6. Swiss Re: sigma 2/2025: World insurance: a riskier, more fragmented world order. Short link: <https://surl.lu/qig1qk>
7. Babaeva N. M. Improving The Efficiency of Investment Activities of Insurance Companies As A Guarantee of Their Financial Stability //Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – 2025. – T. 6. – №. 3. – P. 933-940.
8. Bakhodirovich Z. K. Prospects for the Development of the Insurance Market in the National Economy //The Peerian Journal. – 2022. – T. 11. – P. 1-8.
9. J. François Outreville. // Operations of Insurance Companies. // Theory and Practice of Insurance – pp.221-232.
10. Swiss Re'ning 2024-yilga oid “sigma 3/2024: World insurance: strengthening global resilience with a new lease of life”.
11. Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi – <https://www.imv.uz/>
12. Swiss Re Institute global report of insurance rasmiy veb sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi – Short link: <https://surl.li/uacchq>



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:**

**Ingliz tili muharriri:**

**Rus tili muharriri:**

**Musahhah:**

**Sahifalovchi va dizaynerlar:**

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, sentyabr, 9-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**